

**KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O‘QUVCHILARDA BILISH
JARAYONLARINI RIVOJLANTIRISH USULLARI**

Yo‘ldasheva Nodira Adashboy qizi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarda bilish jarayonlarini idrok, diqqat, xotira, tafakkur va tasavvurni rivojlantirishning samarali usullari yoritilgan. Shuningdek, o‘qituvchining pedagogik mahorati, o‘quv muhitining psixologik iqlimi hamda o‘quvchilarning individual xususiyatlarini inobatga olgan holda bilish faoliyatini rivojlantirishning zamonaviy yondashuvlari tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *bilish jarayoni, idrok, diqqat, xotira, tafakkur, tasavvur, kognitiv rivojlanish, kichik maktab yoshi, pedagogik usullar.*

KIRISH

Bolalar kattalarning u haqidagi bergan baxo va fikrlariga qarab, o‘z-o‘ziga beradigan baxosi, asosan, to‘g‘ridan to‘g‘ri o‘qituvchining beradigan baxosiga va turli faoliyatidagi muvaffaqiyatiga bog‘liq. Bu yoshdagi bolalarda mavjud bo‘lgan ishonuvchanlik, ochiqlik, tashqi tasirlarga beriluvchanlik, itoatkorlik kabi xususiyatlari ularni shaxs sifatida tarbiyalashga yaxshi imkoniyat yaratadi. Bu davr bolaning turli faoliyatlaridagi muvaffaqiyatga erishishini belgilab beruvchi asosiy shaxsiyxususiyatlarini yuzaga kelish va mustahkamlanish davri hisoblanadi. Bu davrda muvaffaqiyatga erishish motivlari tarkib topishi bilan birgalikda mehnatsevarlik va mustaqillik kabi sifatleri mustahkamlanib boradi. Mehnatsevarlik bolada o‘zi qilayotgan ishidan zavq olsagina yuzaga keladi. Bolada mustaqillik xususiyatining shakllanishi asosan kattalarga bog‘liq. Agar bola xaddan ziyod ishonuvchan, itoatkor, ochiq bo‘lsa unda asta sekinlik bilan boysunuvchanlik, tobelik xususiyatlari mustahkamlanib boradi. Biroq bolani vaqtli mustaqillikka undash, unda bazi salbiy hislatlarini rivojlanishiga ham olib kelishi mumkin. Chunki hayotiy tajribalarni kimlargadir taqlid qilgan holda o‘zlashtiradi. Mustaqillikni shakllantirish uchun bolaga mustaqil ishlarni ko‘proq buyurish va ishonch bildirish nihoyatda muhimdir.

Shunindek, shunday bir ijtimoiy psixologik muhit yaratish kerakki, unda bolaga biror bir ishni mustaqil, ijtimoiy vazifa bajarishni topshirish, bu ishni bajarish jarayonida bola o‘zini tengdoshlari, kattalar va boshqa odamlarning lideri deb his qilsin. Ana shu his bolada mustaqil bo‘lishga undovchi motivlarni yuzaga keltiradi. Maktab yoshidagi bola o‘zining individual xususiyatlarini angelaydi. Bolani o‘z-o‘zini anglashi ham jadal rivojlana boradi va mustahkamlana boradi. Bu davrda bolalar o‘zlarining ismlariga yanada ko‘proq ahamiyat bera boshlaydilar va ularning tengdoshlari va atrofdagilari tomonidan ijobiy qabul qilinishiga harakat qiladilar. Bola o‘zining tashqi ko‘rinishi va gavda tuzulishiga beradigan baxosi ham o‘z-o‘zini anglashida kata ahamiyatga ega. Kichik maktab davrining oxiriga borib bolalar, ayniqsa, qizlar o‘zlarining yuz tuzulishiga alohida e‘tibor bera boshlaydilar. Ular o‘zlarining o‘quv faolayati jarayonida o‘zlaridagi xulqatvori va faoliyatini o‘zi

20-Oktyabr, 2025-yil

tomonidan muvofiqlashtirish qobiliyati rivojlanadi, ongli ravishda bir fikrga kela olish qobiliyati rivojlanadi, o‘z faoliyatini o‘zi uyushtirishga hamda bilim olish jarayoniga bo‘lgan qiziqishni qaror toptirishga yordam beradi. O‘quvchi xulq-atvorini motivlashtirishi ham ozgaradi. Bunda do‘stlari va jamoaning fikrlari asosiy motivlar bo‘lib qoladi. Ahloqiy his tuyg‘ular va shaxsning irodaviy xususiyatlari shakllanadi. 5-6 yoshlarda ko‘zga tashlangan bolaning xususiyatlari yillar davomida rivojlanadi va mustahkamlanadi. Shuning uchun “Bola boshidan” kabi maqollar xalq o‘g‘zaki ijodida ko‘plab uchraydi. O‘smirlik davrinig boshlanishiga kelib juda ko‘pgina shaxsiy fazilatlar shakllanib bo‘ladi. Bolalarning individualliklari ularni bilish jarayonlarida ham ko‘zga tashlanadi. Bu davrda bolalarning bilimlari kengayadi va chuqurlashadi, ko‘nikma va malakalari takomillashadi. 3-4 sinflarga borib ayrim o‘quvchilarning umumiy va mahsus layoqatlari ko‘zga tashlanadi. Kichik maktab yoshida hayot uchun nihoyatda ahamiyatli bo‘lgan muvaffaqiyatga erishish motivi mustahkamlanadi, bu esa o‘z-o‘zidan boshqa layoqatlarni jadal rivojlanishiga olib keladi. Bu yoshdagi bolalarda diqqat, idrok, xotira, tafakkur va nutq to‘liq rivojlanib bo‘lganligi uchun ham ularga ta‘lim berishda kattalarga qo‘llaniladigan uslublardan foydalanish mumkin.

ASOSIY QISM

Ma‘lumki, o‘quvchi shaxsini shakllantirish faoliyatini namunali yo‘lga qo‘yish uchun ularning xarakter xislatlari va shaxsiy xususiyatlarini maqsadga muvofiq tarkib toptirish ayni muddaodir. Har bir o‘quvchini individual ahloqiy jihatdan aniqlagandan keyin alohida olingan subyekt bilan individual munosabatda bo‘lish imkonini beradi. 8-10 yoshli bolaning shaxsiy fazilatlar beqaror, dunyoqarashi sodda, tashqi taassurotlarga tez beriluvchandir. Buyuk allomalar ta‘kidlagalaridek, kishining xarakteri hammadan ko‘proq uning hayotining dastlabki bilimlarida tashkil topadi va mazkur xislatlatida namoyon bo‘lgan sifat mustahkam o‘rnashadi va bolaning mustahkam tabiatiga aylanadi. Bolaning ikkinchi tabiatida ijobiy xis-tuyg‘ularni, shaxs fazilatlarini tarkib toptirishda, yuksak insoniy sifatlarni ularda shakllantirishda barcha ma’suliyat boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining zimmasiga tushadi. Bu davrdagi tadqiqotlarga to‘xtaladigan bo‘lsak, ayniqsa E.Erikson, Z.Freyd, G.A Sukerman va V.V.Rubsovlar, K.S.Vigotskiy va D.B.Elkoninlarning tadqiqot va g‘oyalarini alohida ta‘kidlab o‘tishimiz kerak. Ular bolalarning psixik hamda shaxs sifatida rivojlanishiga ularning atrofidagi odamlar, sinf jamoasi, o‘qituvchi, ota-onasi bilan bo‘ladigan munosabati orqali erishish mumkinligini ta‘kidlab o‘tishgan. Ularning yuqoridagi bu g‘oyalariga hali to‘xtalib o‘tamiz. 3-4 sinflarga borib bola uchun uning o‘rtoqlari bilan munosabatning ham ahamiyati ortadi.

Bu munosabatlardan kattalar ta‘lim-tarbiya maqsadlarida foydalanishlari mumkin. Bu yoshdagi bolalar soatlab yolg‘iz qolgan holda sevimli mashg‘ulotlari bilan shug‘ullanishlari mumkin va shu asosda ularda mehnatsevarlik va mustaqillik fazilatlar shakllanadi. Shaxs shakllanishi nazaryalari va bosqichlariga nazar soladigan bo‘lsak, Erikson: “Maktab yoshi: mehnatsevarlik o‘z-o‘zidan qoniqmaslik. To‘rtinchi ijtimoiy –psixologik davr Z.Freyd nazariyasida yashirin latent davrga mos keladi. O‘z jinsidan ota- ona bilan raqiblikdan bartaraf etilgan bo‘ladi. 6 yoshdan 12 yoshgacha bolani oila chegarasidan chiqishi sodir

20-Oktyabr, 2025-yil

bo‘ladi va tizimli ta‘lim xususan madaniyatning texnologik tomonlariga qo‘shilishi boshlanadi. E.Eriksonning kontseptsiyasida ushbu madaniyat doirasida ahamiyati bo‘lgan qurol – aslahalar, hosiblik faxriy va ilmiy unvonlar bilan munosabatda bo‘lishini bilish nimanidir o‘rganishga aynan intilish va tez o‘zlashtirishi universal deb tan olingan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mehnatsevarlik, ishdan zavqlanish atamaları bu davrning asosiy mavzularni ifodalaydi bu davrda bolalar nimadan nima hosil bo‘lishini va u qanday ishlashini bilishga intilishi bilan band bo‘ladilar. Bolaning “Ego” muvofiqligi endi bunday ifodalanadi: “Men” – men nimaga o‘rgangan bo‘lsam. Bolalar maktabda o‘qib, faol ishtirok anglangan tartib – intizom qoidalariga qo‘shiladi. Maktab tartib-qoidalari bilan bog‘liq bo‘lgan odam mukammal ijrochidir. Bu davrning qaltisligi shundaki, o‘z-o‘zidan qoniqmaslik hissini, o‘z qobiliyatlari yoki tengdoshlari orasidagi mavqeidan shubhalanish tajribasizlikni namoyon qilishdan iborat.” Z. Freyd boyicha bu yosh davri: Latent bosqich –jinsiy sokinlik 6-7 yoshdan 12 yoshgacha o‘smirlik yoshi boshlangungacha davom etadi. Asosiy energiya kuchi o‘qish, sport, bilishga intilish asosan o‘zini jinsidagi tengdoshlari bilan do‘stlashishga yo‘naltiriladi. Freydning odamni jinsiy shakllanishidagi bu uzilishining ahamiyatini oliy insoniy madaniyatni rivojlanishi uchun sharoit sifatida alohida ta‘kidlaydi.

O‘quv faoliyati kichik maktab yoshidagi o‘quvchi uchun nafaqat bilish jarayonlarining yuqori darajada rivojlanishi, balki shaxsiy xususiyatlarining rivojlanishi uchun ham imkoniyat yaratadi. O‘quvchining ushbu yosh davrida o‘qtuvchining har bir aytgan so‘zi, xar bir xatti- harakati, ta‘sir o‘tkazish uslubi uning uchun haqiqat mezon bo‘lib qoladi. Chunki o‘quvchilar o‘z o‘qtuvchilariga juda qattiq ishonadilar, ularning fikr va mulohazalariga quloq soladilar, pedagogik taktdan o‘ta ta‘sirlanadilar, qo‘ygan talablariga qat‘iy amal qiladilar. Ana shu tomondan pedagog bergan barcha vazifalarni, yaratilgan muammoli vaziyatlarni hal qilishga intiladilar, ularni o‘z vaqtida ado etishga intikladilar.

O‘qtuvchiga yuksak ishonch, unga bevosita taqlid insonni inson tomonidan idrok etilishi idetifikatsiya bosqichiga o‘xshab ketadi. Ayni shu davrdan boshlab:

- 1) o‘quvchining psixikasiga tashqi ta‘sir ko‘rsatish,
- 2) atrof-muhitdagi kishilarga yordam berishga undash,
- 3) nima bilan shug‘ullanish to‘g‘risida ko‘rsatma va yo‘llanma berish,
- 4) unga oddiy individual yoki ijtimoiy xususiyatga ega bo‘lgan burch xissini tushuntirish,
- 5) uni to‘g‘ri mulohaza yuritishga o‘rgatish,
- 6) ijobiy xis-tuyg‘u va ezgu niyatlarini qo‘llab quvatlash,
- 7) o‘qilgan kitobni, tomosha qilgan kinofilmni, sinfda sodir bo‘lgan voqeani, sayohat taassurotlarini birgalashib muhokama qilish,
- 8) o‘quvchilarni nomaqul so‘z va iboralardan tiyish, ixtilofning oldini olish,
- 9) tabiat manzaralarini quvvatlash va musiqa tinglashga o‘rgaish imkoniyati paydo bo‘ladi. Bu omillarning barchasi o‘quvchining shaxs bo‘lib shakllanishida muhim ro‘l o‘ynaydi.

20-Oktyabr, 2025-yil

O‘quv faoliyatini qanday tashkil etilganlik sharoitiga qarab bolalarning emotsiyalari o‘zgaradi. Shu tariqa kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarda emotsiyalarni jilovlash va emotsional barqarorlik kuztiladi. Ular bu davrga kelib o‘z his-tuyg‘ularini kayfiyatini boshqara oladilar. Chunki ular maktabgacha tarbiya yoshidagi va o‘smir yoshdagilarga qaraganda his-tuyg‘ulari osoyishta chuqur va muvozanatlashgan bo‘ladi. Ularga uzoq muddatli pozitiv emotsiyalar, hushchaqchaqlik, ruhiy tetik kayfiyat hosdir. Bolalar maktabga birinchi bor kelganda, yangi munosabatlar tizimi va muloqot doirasi shakllanadi. Maktab davrining ilk kunlaridanoq o‘quvchilar bir – birlariga e‘tibor bermaydilar, hamda tengdoshlarining yutuqlari bilan qiziqmaydilar, muloqotga kam kirishadilar. Lekin vaqt o‘tishi bilan o‘quvchilar asta- sekinlik bilan bir birlarini kuzatishni boshlaydilar, muloqotga nisbatan ehtiyoj sezadilar va tengdoshlari bilan do‘stlasha boshlaydilar. boshlang‘ich ta‘lim oxiriga kelib esa o‘quvchilarda tengdoshlari orasida alohida o‘ziga hos o‘rinni egallashga ehtiyoj shakllana boshlaydi. Tengdoshlarining ta‘limiy yutuqlariga qiziqish orta boshlaydi va ulardan ajralib turishga bo‘lgan ishtiyoq hulq – atvorning asosiy motiviga aylanadi. Ularning shaxs sifatlarining shakllanishi o‘quv faoliyatidagi hamkorlikka ham bog‘liq. G.A Sukerman va V.V.Rubsovning tadqiqotlaridan ma‘lum bo‘lishicha, tengdoshlari bilan o‘quv faoliyatidagi hamkorlik natijasida bolalarning tafakkuri rivojlanadi va muloqot ko‘nikmalari shakllanadi. O‘quv faoliyatidagi hamkorlik va fikr almashish natijasida bolalarda ijtimoiy – psixologik maydon kengayadi va uning zahirida individual – psixologik xususiyatlar shakllanadi. Tengdoshlari bilan birgalikda, hamkorlikda ishlaydigan bolalar o‘zlarining imkoniyatlari va bilim saviyalarini yaxshi anglaydilar. Psixologik adabiyotlarda, bu yoshning 9-11 yoshgacha davom etadigan oxirgi davrini turlicha talqin etadilar. K.S.Vigotskiy bu davrning o‘smirlikning ilk bosqichi deb hisoblaydi. L.I.Bojovich butun o‘smirlik davrining ilk eng inqirozli pallasi deydi. Z.Freyd esa bu davrni kichik maktab Yoshi va latent bosqichining tugashi deb aytadi. D.B. Elkonin bu davrni barqaror kichik maktab yoshi va o‘smirlik davrlari orasidagi inqirozli palla deb ta‘riflaydi. Kichik maktab yoshi yakunida an‘anaviy ta‘lim tizimida motivatsion inqirozlar vujudga keladi. Avvaliga yangi ijtimoiy faoliyat sifatida boshlangan o‘quv faoliyati an‘anaviy o‘quv majburiyatiga aylanadi. Inqirozning belgilari quidagilardan iborat: maktabga nisbatan salbiy munosabat va maktabga bormaslik; uy vazifalaridan bosh tortish; o‘qituvchilar bilan pedagogik konfliktlarning vujudga kelishi va boshqalar. Bolalarga o‘quv faoliyatini o‘zlashtirishda qiyinchiliklar qanchalik ko‘p bo‘lsa maktabga shunchalik salbiy munosabat kuchayadi. Ta‘lim olish vaqtida hal etilmagan muammolar, qiyinchiliklar, oquvchilarga bilim, ko‘nikma, malakalarning yetishmasligi oqibatida o‘quv faoliyatidagi shaxslararo munosabatlar yanada taranglashadi. O‘quvchilar oldiga ular mustaqil hal etishi lozim bo‘lgan vazifalar qo‘tiladi. (o‘z bilimlarini sinash va taqqoslash, ta‘lim tizimidagi yangi shart – sharoitlarga moslashish, avval bitta pedagog topshiriqlarini bajargan bo‘lsa, endilikda turli o‘qituvchilar tomonidan qo‘yilgan talablarni bajarish lozim) K.N.Polivanova fikricha, kichik maktab Yoshi davrining yakuniy bosqichi inqirozi “ o‘z o‘ziga refleksiv yo‘nalganlik” dir. Bu davrda barqaror shakllangan o‘quv faoliyatlaridagi imkoniyatlarni anglash, endi o‘zini o‘zi bilishga qaratiladi. O‘zgarayotgan ijtimoiy muhit ta‘sirida o‘z

o‘ziga yo‘nalganlik, o‘zining xususiyatlari va qobiliyatlarini bilishga qiziqish ortadi hamda o‘zini kattalardek tutishga intiladi. Tengdoshlari bilan munosabatdan esa shahsiy xususiyatlarini qay darajada rivojlanganlik darajasini bilish mumkindir. Yuqorida aytib o‘tilgan vazifalarni to‘g‘ri bajarilishi, o‘qituvchining o‘quvchilar bilan mazmunli suhbat uyushtirishi, ularda chuqur taassurot qoldiradi va faollik ko‘rsatishga undaydi. Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarni shaxs sifatlarini shakllantirish jarayonida yuksak samaraga erishish uchun ularning yosh individual psixologik xususiyatlarini xisobga olish taqazzo qilinadi. Ma‘lumki, o‘qituvchi turlicha psixologik xususiyatlarga ega shaxs bilan shug‘ullanadi. Shuning uchun biror bir o‘quvchiga nisbatan muvaffaqiyatli qo‘llangan interfaol boshqa biriga samara bermasligi mumkin. Binobarin, o‘zgalarga ta‘sir o‘tkazish tadbirlari o‘quvchi shaxsiga individual yondoshish orqali amalga oshirilsa, yuqoriroq ko‘rsatkichga erishiladi. Ushbu vazifani amalga oshirishda o‘qituvchi o‘quvchilarni individual-tipologik xususiyatlarini qanchalik chuqur o‘rgangan bo‘lsa, ularga shunchalik ta‘sir o‘tkazish kuchi sezilarli va samarali bo‘ladi. Ta‘lim jarayonida har bir o‘quvchining ruhiy dunyosiga yo‘l topa olish barcha muvaffaqiyatlarning garovidir. O‘tkazilgan tadqiqotlarga qaraganda 3- sinf o‘quvchilarning odob to‘g‘risidagi fikr va mulohazalari 1-2- sinf sinalluvchilariga qaraganda mazmun, shakl tuzulish jihatdan kata tafovutga ega bo‘lib, bu narsa bolaning turmush tajribasining ko‘lami, yosh xususiyati va aqliy kamolot darajasi bilan o‘lchanadi.

Yosh davr xususiyati bilan izohlanuvchi farq bilan bir qatorda narsaga turlicha qarash, xar hil yondoshish, muammo mohiyatini ochib berish uslubi individual tafovut borligini ko‘rsatadi. 1-3- sinf o‘quvchilari bilan olib borilgan tajribalar shuni ko‘rsatadiki, axloqiy tushunchalarni tarkib toptirish uchun ularni xar bir tushunchaning muhim alomatlarini ajratishga, umumlashtirishga o‘rgatish, ularda ikkinchi darajali belgilarni ta‘kidlash o‘quvini vujudga keltirish zarur.

Shuningdek, mustaqil fikr yuritish ko‘nikmasini takomillashtirish, mantiqiy xulosa chiqrish usullari bilan boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini qurollantirish maqsadga muvofiq. Boshlang‘ich maktabda o‘qiyotgan bola uchun shaxsiy yutuqlari- o‘qishda, sportda, bolalar orasidagi nufuzi va obro‘si katta ahamiyat kasb etib boradi. Bu davrda bolalar o‘zlarining qaysi jinsga taaluqli ekanligini teran anglab, maktabda “O‘g‘il bolalar” va “Qiz bolalar” guruhi shakllanadi. Xar bir guruhning o‘ziga xos qiziqishlari, mashg‘ulotlari bo‘lib, qiz bolalar davrasida bo‘lish, masalan, o‘g‘il bola uchun xattoki, noqulay bo‘lib qoladi. Eng muhimi, aynan bu davr axloqiy me‘yorlarning ma‘nosini tushunish, axloqiy qadryatlarni o‘zlashtirish va ma‘naviy tasavvurlarning shakllanishi uchun o‘ta sezgir va qulay hisoblanadi. Shuning uchun ham kattalarga hurmat, kichiklarni e‘zozlash, ota-onaga ehtirom ko‘rsatish, Vatanni sevis, shahsiy va ijtimoiy mulkga to‘g‘ri munosabatli xislari tarbiyalanadi. Bola jazo va rag‘batlantirish o‘rtasidagi farqni ajrata boshlaydi v anima qilib bo‘lsa ham jazolanmasdan, ko‘pchilikning nazaridan qolmaslikka harakat qiladi. Shu bois ham oilada va ta‘lim maskanida bolaning ahloqiy va ma‘naviy tarbiyasi uchun yaratilgan yaxshi shart- sharoit ayni bu davrda o‘zining sezilarli samarasini beradi. Bu davrdagi bolalarda motivatsion- ehtiyojlar doirasi va o‘z – o‘zini anglash rivojlanib boradi. Bu davrda

20-Oktyabr, 2025-yil

bolada o‘quv faoliyati borasida ota – onasi, oila a‘zolari, o‘qituvchilari, tengdoshlari orasida o‘zini o‘zi tasdiqlash hamda uni tan olishlariga intilish kuchayadi. Rivojlantiruvchi ta’limga bo‘lgan qiziqish, endilikda faoliyat maqsadiga aylanadi. O‘quv faoliyatidagi asosiy o‘rinni o‘qituvchi va tengdoshlari orasidagi yutuqlari, baholari egallay boshlaydi.

Xulosa: Bu yoshda bola o‘zini o‘zi anglash va shaxsiy refleksiya jarayoni, o‘z imkoniyatlari chegarasini belgilay olish, ixtiyoriylik va o‘zini nazorat qila olish tavsiflanadi. Shuning natijasida bola o‘z hulq- atvorini nazorat qila boshlaydi. U oiladagi va ijtimoiy hayotdagi hulq – atvor me‘yorlarini aniq va differensial holda tushuna boshlaydi, kattalar va tengdoshlar bilan shaxslararo munosabatga kirishdagi farqni anglaydi, o‘z emotsiyalarini, ayniqsa, negativ emotsiyalarini jilovlab ifodalashni boshlaydi. Shu bilan esda tutish lozimki, o‘quv faoliyatini qanday tashkil etilganligi va har bir bola individual xususiyatlarga ega ekanligini hisobga olgan holda kichik maktab yoshidagi o‘zgarishlar ularda turlicha kechishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1.Jalolova M. SENSORY DEVELOPMENT IN PRESCHOOL AGE // Archive of Conferences. - 2021. - T. 25. - №. 1. - S. 153-157.

2. Jalolova, Mohinur. "SENSORY DEVELOPMENT IN PRESCHOOL AGE." Archive of Conferences. Vol. 25. No. 1. 2021.

3. Jalolova, M. (2021, May). SENSORY DEVELOPMENT IN PRESCHOOL AGE. In Archive of Conferences (Vol. 25, No. 1, pp. 153-157).

4.ISAKOVA M. T. SOVREMENNOE OBRAZOVANIE (UZBEKISTAN) // SOVREMENNOE OBRAZOVANIE

(UZBEKISTAN) Founders: Obshchestvo s ogranichennoy otvetstvennostyu "Center for Innovative Technologies". - №. 8. - S. 45-52.

5.ISAKOVA, MU'AZAM TULKINOVNA. "SOVREMENNOE OBRAZOVANIE (UZBEKISTAN)." SOVREMENNOE OBRAZOVANIE (UZBEKISTAN) Founders: Obshchestvo s ogranichennoy otvetstvennostyu "Center for Innovative Technologies" 8: 45-52.

6.ISAKOVA, M. T. SOVREMENNOE OBRAZOVANIE (UZBEKISTAN). SOVREMENNOE OBRAZOVANIE (UZBEKISTAN) Founders: Obshchestvo s ogranichennoy otvetstvennostyu "Center for Innovative Technologies", (8), 45-52.